

Bugun xalqaro uloq-ko'pkari musobaqasining yarim final hamda final bahslari bo'lib o'tadi



Bugun xalqaro uloq-ko'pkari musobaqasining yarim final hamda final bahslari bo'lib o'tadi

Surxondaryo viloyatida ilk bor o'tkazilayotgan xalqaro uloq-ko'pkari musobaqasining birinchi kunida Milliy gvardiya huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabida xorijlik va mamlakatimiz chavandozlari jamoalarining maydonga tushishi qur'a tashlash yo'li bilan ochiq, oshkora aniqlab olindi.

Unga ko'ra, musobaqaning saralash bosqichini «O'zbekiston-1» va O'zbekiston Milliy gvardiyasi huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabi jamoalari boshlab berdi.

Bellashuv oldidan jamoalarga musobaqaning tartib-taomillari tushuntirildi. Ishtirokchilar hamda muxlislarga hakamlar va jamoalar a'zolari tanishtirildi.

Bugun, soat 11:00 da xalqaro turnirning tantanali ochilish marosimi boshlanadi. Soat 11:00 dan boshlab chavandozlar yarim final hamda final bahslarida ishtirok etadi va g'oliblarni aniqlanadi. Musobaqa yakunida g'olib va sovrindarlarni taqdirlash marosimi o'tkaziladi.












Image not found or type unknown

